



Termiz tumanidagi "Ayritom" mahallasi hududida "Indenim Textile" MCHJ tomonidan qiymati 120 milliard soʻmlik yiliga oʻn ming tonna tayyor kiyimlar ishlab chiqarish quvvatiga ega tikuv-trikotaj korxonasi qurib bitkazildi.

Olтинsoy tumanidagi Karsagan qishlogʻining kelib chiqishi necha-necha yillik tarixga borib taqaladi. Boysun bekligi davrida bizning bosh bobimiz Ashur yasovul bekning qarindoshlaridan biri boʻlgan. U Boysun va Dushanbe beklilari orasida vositachilik qilib, hozirgi Karsagan qishlogʻi joylashgan yerdan oʻtar ekan.

Kunlarning birida Bek bilan yasovul oʻrtasida nizo chiqadi. Yasovul qarindosh-urugʻlarini olib, chorvaga qulay joy deb, hozirgi Karsagan qishlogʻi joylashgan joyda — baland tepalik yon bagʻrida chorvasi va qarindoshlari bilan qoʻnim topadi. Ashur boboning bir necha oʻgʻillari boʻlib, ulardan biri Xoʻjanazar tegirmon yasaydigan usta boʻlgan. Uning Boysunda ham tegirmoni boʻlib, Karsaganda suv tegirmoni qurgan. Buni koʻrgan qoʻshni qishloqliklar tegirmon toshlarini xarid qilishgan. Shu sabab bu qishloqning nomi Kori-

Sangin — "tosh bilan ishlovchilar" yoki "tosh yoʻnuvchilar" qishlogʻi deb yuritilgan. Keyinchalik toponimning buzilishi natijasida "Karsagan" deb atalgan. Karsagan qishlogʻida 2021-yilda anchagina obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Zamon talabi darajasidagi uch qavatli maktab binosi, ikki qavatli bolalar bogʻchasi qoʻli

KARSAGANNING MUAMMOLARI QACHON HAL ETILADI?

gul ustalar tomonidan qurib, ishga tushirildi. Bundan tashqari, Davron Roʻziyevning homiyligi ostida ikki qavatli madaniyat saroyi ham barpo etildi. Bu qurilishlar qishloqqa koʻrk bagʻishlamogʻda. Qishloqda 6 ta savdo doʻkoni ishlab turibdi. Ularda istagan narsangiz topiladi. 2 ta oshxona, bitta novvoyxona bitta qassobxonada xalqqa xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, tuman hokimi Alisher Jumayevning tashabbusi bilan qishloqdagi barcha koʻchalar toshlanib, ishlov berildi. Aтроf tozalaniб, uylar oqlandi. Obodonchilik ishlarini tuman hokimi va uning

Yangi korxonaning ochilish marosimida ishtirok etgan viloyat hokimi T. Bobolov "Indenim Textile" MCHJda ming nafar xotin-qiz uchun ish oʻrni yaratilgani haqida soʻzlashdi va tadbirida yigʻilgan — Termiz, Jarqoʻrgʻon tumanlari va Termiz shahridagi barcha mahalla raislari, ularning xotin-qizlar masalalari boʻyicha maslahatchilari, shuningdek,

Viloyat hokimi yigʻilganlarni "Indenim Textile" MCHJning faoliyatiga doir baʼzi maʼlumotlardan xabardor qildi. Tadbirkorlarning saʼy-harakati bilan 2021-yilda 36 million AQSH dollari ekvivalenti miqdoridagi qishloq xoʻjalik hamda tikuvchilik mahsulotlari eksport qilingan. Oltinsoy va Qiziriq tumanlarida tikuvchilik korxonalari ochilib, 650 nafar xotin-qiz bandligi taʼminlangan. Endi esa "Ayritom" mahallasi hududida ming oʻrinli korxonaga barpo etildi. Shu munosabat bilan Termiz, Jarqoʻrgʻon tumanlari hamda Termiz shahri bandlikka koʻmaklashish

"TIKUVCHIMAN" DEGANGA ISH BOR

mahallalarda joriy yil yanvaridan tayinlangan hokim yordamchilari zimmasiga bir qator vazifalar yukladi.

Jumladan, mahallalarda ishga kirishgan hokim yordamchilari xonadonmixonadon yurib, oilalar sharoitini oʻrganib, muammolarni hal etayotgani bois aholining viloyat va tuman hokimliklari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Surxondaryo viloyatidagi Xalq qabulxonasi va boshqa yuqori tashkilotlarga ariza-shikoyatlari 2022-yilning yanvar oyida oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 12 mingga kamayganligi taʼkidlandi. Shu bilan bir qatorda hokim yordamchilari mahallalardagi mutaxassislar va tumanlardagi bandlikka koʻmaklashuvchi markazlar vakillari bilan hamkorlikda bir oy ichida joylarda 4 463 ta yangi ish oʻrni yaratildi, degan maʼlumotlar berishgan. Vaholanki, bu ish oʻrinlari hokim yordamchilari ish boshlamay turib ochilgandi, — dedi viloyat rahbari.

markazlari rahbarlariga joylardagi Obodonlashtirish korxonalarini va boshqa jamoatchilik ishlari uchun shtat ajratmaslik, 18 yoshdan 45 yoshgacha boʻlgan xotin-qizlar ish soʻrab murojaat qilganida "Indenim Textile" MCHJga yoʻllanma berish topshirigʻi berildi.

— Hamma Obodonlashtirish tashkilotlariga ishga joylashsam deydi. Chunki ular ertalab supurgisini koʻtarib, bir koʻrinish beradi-da, shu bilan tamom, byudjetdan ajratiladigan tayyor maoshga ega boʻlishyapti, — dedi hokim. — Endi yangi korxonaga ochdik, kimki xohlasa, marhamat, ishlasin. Prezidentimiz viloyatimizga kelganlarida yangi ish oʻrinlarini koʻpaytiramiz, deb davlat rahbarini ishontirgandik. "Indenim Textile" MCHJ rahbarlari moliyaviy muassasalardan kredit olib boʻlsa-da, bu korxonani barpo etishdi. Termiz tumani va Termiz shahri barcha mahallalari, shuningdek, Jarqoʻrgʻon tumanining "Ismoiltepa" mavzesigacha boʻlgan barcha aholi punktlaridagi xonadonlarda yashovchi xotin-qizlar kelib

YANGI KORXONA

ishlasin, ishlab chiqarishda oʻzini koʻrsatib, yurt taraqqiyotiga hissa qoʻshsin.

Shundan soʻng "Indenim Textile" MCHJ ish boshqaruvchisi Malika Shoymardonova yigʻilganlarni korxonada ish tartibi bilan tanishtirdi. Sexlarda Xitoy va Turkiya mamlakatlaridan keltirilgan 500 dona zamonaviy tikuv mashinasi oʻrnatilgan. 500 nafar xotin-qiz tikuv mashinalarida bolalar, erkaklar va ayollar kiyim-kechaklari,

trikotaj buyumlari tikishsa, yana 500 nafar ishchi tayyorlangan kiyim-kechaklarni davmollash, dizaynerlash va qadoqlash ishlari bilan band boʻladi.

Hozircha korxonada bir smenal ish tashkil qilinadi. Kelgusida ikki smenal ish bajariladi. Yangi qabul qilingan ishchilar bir yarim oy mobaynida sinovdan oʻtadi va shu davrda ham ularga 820 ming soʻm maosh toʻlanadi. Malakali boʻlib, mustaqil ravishda kiyim-kechak tayyorlay boshlagan xotin-qizlarga 2 million soʻmdan haq toʻlanadi. Bundan tashqari, ish kunida toʻliq ishtirok etganlar qoʻshimcha ravishda ragʻbatlantiriladi, bayramlarda mukofot beriladi. Ishchi xodimlar uchun avtobus qatnovi yoʻlga qoʻyilib, ikki mahal bepul ovqat bilan taʼminlanadi.

Darvoqe, kimdan soʻrasangiz "ish yoʻq" degan har xil vajrlarni roʻkach qiladi. Tadbirkorlarimiz ming oʻrinli korxonaga ochibdi. Xotin-qizlar uchun bu gʻamxoʻrlilik nishonasi.



OLTINSOY TUMANI HOKIMLIGI DIQQATIGA

oʻrinbosari har kuni kuzatib, nazorat qilib turishdi. Biz bulardan xursandmiz, albatta. Ammo, qishlogʻimizda hali yechimini kutayotgan muammolar ham bor: Hududda ambula-

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi huzuridagi "Ijtimoiy sheriklik" boʻyicha jamoat komissiyasining tegishli qaroriga muvofiq "Nodavlat notijorat tashkilotlarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha Jamoat fondi" tomonidan "Yilning eng faol nodavlat notijorat tashkiloti" tanloviga hujjatlar taqdim qilish muddati uzaytirildi.

DIQQAT EʼLON!

— Tanlovga talabgor nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan 2021-yilda amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalarni tasdiqlovchi foto, videotasvirlar, tayyorlanib tarqatilgan buklet va boshqa hujjatlar; — yaratilgan ish oʻrinlari; — kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilgan tadbirlar va ulardan kutilayotgan natijalar; — davlat soliq va boshqa idoralarga topshirilgan hisobotlar nuxsalar taqdim etilishi lozim.

"Yilning eng faol nodavlat notijorat tashkiloti" tanloviga hujjatlar taqdim qilish muddati 2022-yilning 1-fevralidan 28-fevraligacha uzaytirildi.

Tanlovda ishtirok etish uchun talabgor tashkilotlar quyidagi hujjatlarini taqdim etadilar.

1. Tashkilot rahbari

tomonidan imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan kuzatuv xati; 2. Oxirgi oʻzgartish va qoʻshimchalar bilan davlat roʻyxatidan oʻtgan NNTlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining Nizomi nusxasi; 3. Tashkilotning davlat roʻyxatidan oʻtganligi toʻgʻrisidagi guvohnoma nusxasi.

MUKOFOT FONDI:

1 - oʻringa 10 million soʻm;
2 - oʻringa 6 million soʻm;
3 - oʻringa 4 million soʻm.

Hujjatlar Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlar jamoat fondiga, 190111; Termiz shahri, I. Karimov koʻchasi, 62-a uy manziliga "Oʻzbekiston pochatasi" orqali muhrlangan konvertlarda (A4 formatda) yuborilishi shart.

XALQ DEPUTATLARI VILOYAT KENGASHIGA SAYLOV OʻTKAZUVCHI VILOYAT SAYLOV KOMISSIYASINING QARORI

Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarini roʻyxatga olish toʻgʻrisida

2022-yil 30-yanvarda xalq deputatlari viloyat Kengashining boʻshab qolgan oʻrinlari uchun saylovlar boʻlib oʻtdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Oʻzbekiston Respublikasining Saylov kodeksiga toʻla muvofiq ravishda boʻlib oʻtgan saylovlarda 103 ming 97 nafar saylovchi yoki roʻyxatga kiritilgan saylovchilarning 79,6 foizi qatnashdi.

2022-yil 30-yanvarda boʻlib oʻtgan saylov yakunlari haqidagi okrug saylov komissiyasining bayonnomasiga asosan Oʻzbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 20- va 97-moddalariga muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov oʻtkazuvchi viloyat saylov komissiyasi

QAROR QILADI:

1. 2022-yil 30-yanvarda xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov oʻtgan deb hisoblansin.

2. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 6-Septon, 14-Uchqizil, 18-Sanoat, 42-Katta Vaxshivor hamda 50-Sina saylov okruglarida boʻshab qolgan oʻringa saylangan deputatlar ilovaga muvofiq roʻyxatga olinsin.

3. Mazkur qaror mahalliy ommaviy axborot vositalarida eʼlon qilinsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish viloyat saylov komissiyasi kotibi D.Fayzullayev zimmasiga yuklansin.

Komissiya raisi A.MUSTANOV
2022-yil 31-yanvar Q-79 Termiz shahri

Xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov oʻtkazuvchi viloyat saylov komissiyasining 2022-yil 31-yanvardagi Q-79-son qaroriga ILOVA

Xalq deputatlari viloyat Kengashining boʻshab qolgan oʻrinlar uchun oʻtkazilgan saylovlarda okruglardan saylangan deputatlar ROʻYXATI

6-SEPLON SAYLOV OKRUGIDAN:

TURSONOV Saypulla Narzullayevich — 1956-yilda Sherobod tumanida tugʻilgan. Surxondaryo viloyati hududiy innovatsiya faoliyati va texnologiyalar transferi markazi rahbari, Termiz davlat universiteti kafedra mudiri. Oʻzbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan nomzodi koʻrsatilgan.

14-UCHQIZIL SAYLOV OKRUGIDAN:

GʻAFFAROV Bohodir Boltayevich — 1973-yilda Boysun tumanida tugʻilgan. Surxondaryo viloyat Kardiologiya markazi direktori. Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzodi koʻrsatilgan.

18-SANOAT SAYLOV OKRUGIDAN:

ALLAMURODOV Xayitali Mamadaliyevich — 1967-yilda Boysun tumanida tugʻilgan. Termiz shahar "Termiz-Tezkor-Qurilish" ixtisoslashtirilgan taʼmirlash-qurilish tashkiloti bosh direktori. Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzodi koʻrsatilgan.

42-KATTA VAXSHIVOR SAYLOV OKRUGIDAN:

ESHMURATOV Abdulxakim Xushbokovich — 1962-yilda Shoʻrchi tumanida tugʻilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Surxondaryo viloyatidagi Xalq qabulxonasi mudiri. Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzodi koʻrsatilgan.

50-SINA SAYLOV OKRUGIDAN:

SALOMOVA Raʼno Vassievna — 1967-yilda Denov tumanida tugʻilgan. Surxondaryo viloyati kasbiy taʼlimni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi boshligʻi vazifasini vaqtincha bajaruvchi. Oʻzbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan nomzodi koʻrsatilgan.



Denovda qonunbuzarlik bo'lsa, o'sha tumanlar rahbarlari bilmaydi, lekin Termizda o'tirgan Safarova biladi, burni hammasini sezadi" qabilida gap yurur ekan. Men shunchaki xalq, jamoatchilik bilan ishini to'g'ri yo'lga qo'ygandim, xolos.

Natijalar ham jamoatchilikniki, xalqnik edi. Qo'mitadagi davlat inspektoridan ko'ra jamoatchi inspektorlar ko'p maosh ola boshlashdi. 2005-yildan boshlab ko'rsatkichlar borasida mamlakatda yuqori o'rinlarni hech kimga bermadik, xodimlar maoshdan tashqari har oyda mukofot, rag'bat pullari ola boshladi. Bunga qiziqqan soha mutaxassislari barcha

so'ng anavi idora tomonidan yana tekshirilib, ishlashga imkon bo'lmayotgani bu gal meni jiddiy xavotirga soldi. Tazyiq va qo'rqitishlardan butun jamoamiz bezillab qoldi. Tekshirishga 10 kuncha bo'lganida xavfsizlik xizmatidan tayinlab yuborilgan rahbarga daladan qaytolmasligimni, o'zi nima qidirishayotganini, agarda joyim kerak bo'lsa, bo'shatishga tayyorligimni aytdim. U esa ochiqchasiga "joyim emas, jonim qiziqtirayotganini, agar ularning yo'rig'iga yursam, ular ko'rsatgan joylarga imzo qo'ysam, ishim yengillashishini, aksincha ular meni baribir yo'q qilish chorasini topishlarini" aytdi. Ko'pchilik bilardi, adolatsizlikka qarshi kurashda murosasizman, tarbiyam shunday bo'lgan.

Bir ayol bor...

barq urganча kutib oldi meni boshqarma tergov bo'limi boshlig'i. — Sizni bu yerga olib kelish uchun rosa besh yil orqangizdan odam qo'ydim va kutdim. Xo'sh, ayt-chi (endemi sensirashga o'tdi u) ildizing qayerda? Tilingning o'tkirligi, botirliging sababi nima? Orqangda kim turibdi? Katta yig'inlarda tildan tushmay qolding? O'zing aytib bersang, hoziroq chiqarib yuboraman. — Ildizim yo'q, oddiy traktor chining qiziman, faqat Allohdan qo'rqaman. — Olib ketinglar buni! Balki, ertagacha esiga tushar! Boshimga qop kiydirib, hibsonaga tashlashdi. Ertasi kuni meni yo'yoki ayni shu

TABIATNI ONAMDEK SEVAR EDIM

Nurxon ELMIRZAYEVA, jurnalist, ("XXI asr" gazetasi dan olindi)

2001-2010-yillarda Surxondaryo viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi raisi bo'lib ishlagan Ro'zgul Safarovani nega qamashgandi?

"Dasht qul"ni sindirmoqchi bo'ldilar...

Kimdir sizni nohaq ayblasa, dilingizni og'ritsa, qanday ahvolda tushasiz? Ichingizga o't tushgandek to'lg'onasiz, fig'oningiz falakka chiqadi, to'g'rimi?! Chunki tuhmat shunday zaharli o'qki, tekkan joyini chuqur o'ygani yetmaganidek, muttasil azobli og'riqqa muhtalo qiladi. Ma'naviy, ruhiy zarbalardan inson aql-u hushini yo'qotishi hech gap emas! "Nega?", "Nima uchun?", "Mening aybim yo'q-ku axir!?" kabi savollar tun-u tun tinchlik bermaydi, miyani egovlayveradi. Va nihoyat, nohaq tuhmat tufayli qamoqqa olinib, keyin uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'qilsa-chi?!

Davlatimiz rahbari mamlakat boshqaruvidagi ilk kunlaridayoq, ya'ni 2016-yil 21-oktyabrda "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bejiz imzolamagan edi. Qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida qo'yilgan eng muhim qadamlardan bo'lmish ushbu hujjatdan asosiy maqsad — aynan dastlabki tergov organlari tomonidan asossiz ayblovlar qo'yilib, sudning adolatsiz hukmi bilan jinoyatchi tamg'asi bosilgan, panjara ortida umrini o'tkazgan minglab aybsiz aybdor yurtdoshlarimizning huquqlarini himoyalash, xususan, oqlash va ularning el oldida begunohliligi ko'rsatish edi. Qolaversa, kelgusida bunday xatoliklarga yo'l qo'ygan huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlariga jazoning muqarrarligini eslatish edi.

anglar, qutqarar mard bo'lmasa?!. Men 1988-yilda, ya'ni mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tashkil etilgan kundan boshlab shu sohaga kirib keldim. Oddiy laboratoriya xodimidan bo'lim boshlig'igacha bo'lgan lavozimda ishladim, biologiya-ekologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldim. 1997-yil doktoranturaga kirgach, poytaxtga kelib, Toshkent viloyati Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasida ish boshladim. 2001-yil 8-iyundan esa Surxondaryo viloyati Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi raisi lavozimiga tayinlandim. Bu yerga kelib nomi bor-u o'zi yo'q o'z o'ziga o'z tashkilot degani qanaqa bo'lishini angladim. Tashkil etilganiga 12 yil bo'lganiga qaramay, qo'mitaning o'z joyi, xizmat mashinasi, hatto yozuv mashinalari ham yo'q edi. Ijarada turadi, hamma tomonlari o'yilgan, yozda issiq, qishda paltoda ham o'tirib bo'lmaydigan darajada sovuq xonalar. Ishchilar shtatda bor-u o'zi yo'q, biror narsa yozmoqchi bo'lishga, qog'oz ko'tarib boshqa idoraga ketishadi, shu holda qaytib kelishmaydi.

Ishxona joylashgan Termiz shahrida uy-joyim yo'qligi uchun 8 oylik chaqalog'im bilan 70 kilometr uzoqlikdagi, ota-onam yashaydigan Muzrabot tumanidan qatnab ishlay boshladim. O'shanda viloyat hokimi meni ilk bor qabul qilganida: "Qo'mita raisligi ayol kishiga oson emas, kecha-kunduz ishlashingizga to'g'ri keladi" dedi va meni eng uzoq tumanlar — Sariyosyo va Uzunga g'alla yig'im-terimiga vakil qilib jo'natdi...

Yosh go'dagim bor desam, ehtimol, yaqinroq hududlarga jo'natardi, lekin "ayol kishi-da, epollomadi" demasligi uchun ham o'zimga so'z berib, indamay ketdim. Chaqalog'imni beshik bilan turmush o'rtog'imga mashinada qoldirib, oyog'imga kirza etik kiyib, g'allazorga kirib ketaman. Orada xabar olgani kelsam, bolam goh dala chetidagi ikki tutga osilgan halincha, goh beshikda uxlayotgan bo'ladi. Dala ishini tugatib, kechasi Termizga qaytaman, tungi soat 1-2 gacha pochmani ko'raman. Tongda yana g'allazor sari yo'l olaman. Har kuni shunday. G'alla tugasa paxtaga ishlov, yig'im-terim, so'ng yana g'alla ekish. Xullas, yil davomida daladan chiqmasdan qo'mita ishini ham olib borish kerak. Qo'mitadagi har bir xodim bilan ham alohida ishlashga, ularni tarbiyalashga harakat qildim. Guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, ba'zilarini bo'shatishga to'g'ri keldi. Kelganimda bu tashkilot ko'rsatkichlar bo'yicha respublikada eng oxirgi o'rinda edi.

Suvdan, o'zi yo'q gazdan, yoqilg'idan, deyarli hamma narsadan qarzdor edi, ishchilar yillab oylik olmagan. Vaziyatdan chiqish uchun tinmay ishladik, mehnatlarimiz samara bera boshladi — ikki yilda qarzdorlikdan qutuldik, mamlakatda barcha ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori o'rinlarga ko'tarildik!

2004-yilda bir eski binoni balansimizga olib, ta'mirlab, o'z idoramizga ega bo'ldik. 20 nafar inspektor byudjetdan oylik olib ishlaydi, 200 nafarini jamoatchilikdan, xalq orasidagi ko'ngillilardan tanladik.

Orzularim ijobat bo'layotganida...

O'shanda xalq orasida: "Uzun yoki

viloyatlardan kelib, ish tajribamizni o'rganishar edi. Xullas, ekologiya degan tashkilot borligini, unga nisbatan qonunbuzarlik qilgan, albatta, javob berishini odamlar tushundi. Bu mening eng buyuk orzularimning ijobati edi. 9 yillik rahbarlik faoliyatimning har bir lahzasida tabiatni asrab-avaylash borliqni, farzandlarimiz kelajagini asrash ekanini, bu ham farz, ham qarz ekanligini vohadoshlarim qalbiga yetkazish uchun yashadim. Bu yo'lda kurashdan charchamadim.

Mehnatlarim besamar ketmadi, hozirgi Prezidentimiz, o'sha paytda mamlakat Bosh vaziri bo'lgan Shavkat Mirziyoyev har gal Surxondaryoga tashrifida faoliyatim, sohamiz haqida iliqlik fikrlar bildirar, bu meni yanada ko'p ishlashga, tazyiqlardan qo'rqmay, sabr-matonat bilan kurashishga undar edi. Chunki o'sha yillarda ish bermaydigan xodimlarni bo'shatganim uchun ustimdan yozilgan shikoyatlar va boshqa noo'rin vajlar bilan yilida kamida ikki marta o'tkaziladigan tekshirishlar ishlashimga xalaqit berib, charchatayotgan edi.

Hammasi holva ekan!

2005-yilda Milliy xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi 4 yillik moliyaviy faoliyatimiz bo'yicha tekshirish boshladi. Men bu paytda Bosh vazir komandasi vakil, ya'ni guruh rahbari bo'lib paxta yig'im-terimi mavsumida, kun qachon botib, tong qachon otyapti, bilmasdan, xizmatda edim. Qiziriq tumanida terimning avj pallasi, hudud bo'yicha yig'ilishni o'zim o'tkazaman, so'ng kunlik paxta hisobini qilib, respublika shtabiga berib, tungi 2-3 da Termizga, ishxonamga qaytaman. Tekshiruvchilarni kerakli hujjatlar bilan ta'minlashini o'rinosarim tavinlab, Qiziriq dalalariga qaytaman. Hamma xona, jumladan, meniki ham muhrlangan holda tekshirish naq ikki oy davom etdi, xato-kamchilik topilmagach, ishni yakunlashdi.

Ayni o'sha paytlarda sassiq kavrak shirasini tog'larda qo'shni afg'on fuqarolari yig'ib olishi avjiga chiqqan edi. Tog'larda, shu o'simlik o'sadigan joylarga reydlar tashkil qildim, bu g'yohni tabiatdan yo'q qilib, tomirlariga zarar berayotgan tabiat dushmanlarini jarimaga tortib, ularni hududimizdan chiqarib yubora boshladim. O'simlikni noqonuniy yig'ishtirayotgan bir nechta afg'on fuqarolarini ushlab viloyat hokimiga, MXX idorasiga hamda respublika ekologiya qo'mitasiga xabar berib, yordam so'rab chiqqanimda: "Qo'ying, aralashmang, u odamlar "aka"larga tegishli" deb qaytarishdi. Aralashmay turolmadim, chunki bu g'yoh tabiatdan vahshiylarcha yo'q qilinayotgan edi. Bunday paytda uni asrashga mas'ul bo'lgan asosiy sohalardan birining rahbari bo'la turib qarab turolmadim. Vijdonim yo'l qo'ymasdi. Bir necha marta noqonuniy faoliyat yuritayotgan shaxslarga teginmaslik bo'yicha yurttimiz xavfsizligiga mas'ul idora — Milliy xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi mas'ul shaxsi nomidan kelib meni ogohlantirishsa-da, qonunbuzarlarga qarshi kurashishni, ularni ushlashni davom ettiraverdim. Oqibatda...

"Joying emas, joning kerak"

2008-yilda Milliy xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi (mas'ul rahbar imzosi ostidagi buyruq bilan) yana tekshirish boshladi. Bu paytda Qurqon qo'rg'onidagi paxta yig'im-terimiga mas'ul edim. Terim oxirlashgan, biror chanoqda paxta yo'q, lekin rejanı bajarish shart. Faoliyatim to'g'riligiga ishonchim komil bo'lsa-da, yaqindagina o'tgan prokuratura taftishidan

Shu bois ular har qancha qo'rqitishga urinishmasin, meni egiltira olishmadi. Noqonuniy ishning noto'g'riligini, u kim bo'lmasin, yuziga aytishdan qo'rqmadim, ularning izmiga yurmamdim! 41 kun hammayoqni ag'dar-to'ntar qilishib, hatto biror jarima ham qo'llamasdan ketishdi...



Bosh vakil bo'lganim — Qumqo'rg'on tumani ham paxta rejasini 6 yilda birinchi marta bajardi! Bunda ham xalq bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik, jamoat ko'magi natija berdi. Vazirlar Mahkamasiga yig'ilishga chaqirishdi.

O'tgan holatlar tufayli holdan toygan, behol yig'ilishda o'tirardim. Kutilmaganda o'sha paytda Bosh vazir Shavkat Mirziyoyev: "Surxondaryo ekologiya raisi qatnashyaptimi?" degani meni sergaklantirdi. So'ng qo'shimcha qildi: "Qumqo'rg'on paxta rejasini bajarishda, bunday muvaffaqiyatga erishishda qilgan xizmatlaringiz haqida gapirib bering. Shu ayol bajargan ish va qo'llagan tadbirlar qaysi biringizning qo'lingizdan keldi, fidoyilikni, sadoqatni bu kishidan o'rganish kerak, rahmat sizga!" Ishonasizmi, ko'rgan-kechirganlarim, uqubatlarim shu zahoti esimdan chiqdiketdi, bu ehtirom yanada kuchli bo'lish, Vatanim, xalq farovonligi uchun bor ilmim, iqtidorim va salohiyatimni safarbar qilib, ishlashga undadi.

Mehinchisi puchinchisi bo'ldi...

Uchinchi marta. Ha, 2010-yil 3-iyun kuni... uchinchi marta yana o'sha boshqarma tergov bo'limi boshlig'i imzosi bilan naq 20 kishidan iborat tekshiruvchi yopirilib kelishdi — naq 9 yillik faoliyatimni tekshirishga. Viloyat hokimi qabuliga kirib, bunday tintuvlardan charchaganim, hoziroq ishdan bo'shamoqchi ekanimni aytib, shu mazmundagi arizam bilan respublika qo'mitamiz raisiga ham chiqdim. Ular arizamga rozi bo'lishmadi. Hamma nazorat organlari vakillaridan iborat guruh bir oy tekshirib, yana hech qanday qonunbuzarlik aniqlasholmadi. Baribir ko'nglim notinch edi, chunki o'sha idoraning izmiga yurmagan, kuchli bilim, tajribasiga ishongan rahbarlar birin-ketin qamoqqa olinayotgani quloqqa chaliniib turar edi. Inson o'ziga kelayotgan xavfning darajasini sezar ekan. 31-iyun kuni viloyat hokimidan ruxsat olib, Toshkentga borish, Bosh vazir qabuliga kirib, vaziyat haqida xabar bermoq uchun tazyorgarlik ko'ra boshladim. Ming afsuski... ulgurolmadim...

Tush, soat 14:00 da MXX viloyat boshqarmasidan "bir qog'ozga imzo qo'yib keting" deb chaqirib qolishdi. Bildimki, o'sha ko'rgilik menga ham keldi, u yerga kirgan odam qaytib chiqmaydi. Ukam bilan birga bordik, ko'chada uni bag'rimga bosib, yig'ladim. "Ota-onam, ikki bolam senga omonat" deb xayrlashdim. Endi mening jonimni shu yerga olishadi, o'zimni emas, bolalarimni o'yiladim, ular hali yosh edi, ota-onam ko'z oldimdan o'tdi, bu dardni ko'tara olisharmikan, o'zi shundog'am navqiron yoshidagi ikki o'g'lini tuproqqa topshirib, to'kilib qolishgan edi-ku, o'zidan ko'ra meni o'yilab ularning azoblanishlari ko'proq qiynardi, go'yoki o'lishga borayotgandek his qildim o'zimni. — Keli-ying, keling, uzoq kutilgan mehmon, — yuzida g'oliblik nashidasi

paytda mazkur hibsonada saqlanayotgan Asqar ismli yigitdan ekologik loyihalarga ijobiy xulosa berishim evaziga "Nokia" rusumli qo'l telefonini pora sifatida olganlikda ayblab, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa saqlash uchun sanksiya o'qildi. Shu-shu, 3 oy davomida na tergov qilishdi, na yaqinlarimni ko'rsatishdi, uydagilarimga o'lik yoki tirikligimni ham aytishmagan. Bu yerda har kuni menga ko'rsatilgan ruhiy azob, qo'rqitish, bosimlarni eslasam, hozir ham dunyo qop-qorong'i bo'lib ketadi. Eng alamlisi — Vatanim, el-yurt uchun kunni tunga ulab, oilam, hatto farzandlarim diydoriga to'ymasdan, keksa ota-onamni yo'llarimga zor etib, qilgan mehnatim evaziga shumidi olgan mukofotim? Shunday o'yarlarda ich-etimni kemirib hibsonada o'n oy o'tirdim.

Ular meni bu yerga qamab, qo'mitamda ishlagan 9 yillik faoliyatimni yana istagancha tekshirishib, istaganlarini yozishdi, yozdirishdi, meni qamashlari uchun ortig'i bilan soxta dalillar to'plashdi. Eng dahshatlisi — meni himoyalashi kerak bo'lgan sud tergov organi qo'ygan ayblarni nuqta-tergulingi ham o'zgartirmay, hukm o'qidi! Aybsizligimni isbotlashimni inobatga olmadi. Sud bamisoli bir qo'g'irchoq rolini ijro etdi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Surxondaryo viloyat sudining 2010-yil 21-dekabrda hukmi bilan jinoyat kodeksining 210-moddasi 3-qismi b bandi, 205-moddasi 2-qismi v bandi, 167-moddasi 2-qismi a, b, v, g bandlari, 209-moddasi 2-qismi a bandida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda aybladim. Shu kodeksning tegishli moddalarini tartibida tayinlangan jazolarni qisman qo'shish yo'lib bilan bir yil mansabdorlik va moddiy javobgarlik yuklatilgan lavozimlarda ishlash huquqidan mahrum qilingan holda uzil-kesil 7 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga mahkum etildim!

Hukmda meni qo'mita raisi bo'lib ishlagan davrimda mas'ul mansabdor shaxs bo'la turib, o'zimga ishonib topshirilgan ko'p miqdordagi mukhlarni mansab mavqeyini suiiste'mol qilish yo'li bilan bir guruh shaxslar tomonidan oldindan o'zaro jinoiy til biriktirib, o'zlashtirib, fuqarolarning huquqlari, qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazib, g'arazgo'ylik va boshqa manfaatlarini ko'zlab, rasmiy hujjatlarga bila turib, soxta ma'lumot va yozuvlar kiritish, mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, pora olish, ya'ni muayyan harakatlarni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarish, mulkiy naf ko'rish jinoyatlarini sodir etganlikda ayblashdi!



Eh, men pul izlasam, uni ona Vatanim bag'ridagi mendan najot kutib turgan, qirilib borayotgan g'yohlardan izlarmidim. Axir, aynan ularni yo'q bo'lib ketishidan asrash uchun kurashdim-ku! Ular uchun yashash, kurashish hayotim ma'nosi edi-ku?!

Ota-onamdek azizim, ko'zimning nuri edi-ku, tabiat! Nahotki, unga oqpadarlik murodim bo'lgan bo'lsa?! Xizmatlarim tuhmatga aylandi, haqqo'yilim, fidoyiligim uchun shunday xo'rlik va azoblar bilan "taqdirlandim"...

(Davomi kelgusi sonda)





Oramizdagi odamlar

boshqacha uslubda faoliyat olib borilardi. Foydalaniladigan dori-darmon vositalari bepul bo'lib, go'dak tug'ulgandan sug'urta polisiga ega bo'larkan. Shifoxonalarga tashkilotlar pul o'tkazadi, ana shu sug'urta vaziga o'zini ta'minlaydi. Biror xodim og'rib qoldimi, sog'ligida e'tirozi bormi, million ketmaydimi, bepul davolanadi. Bu tizim barcha davlatlarda joriy etilsa, ishonchim komilki yaxshi natija beradi. Yana e'tiborimni tortgani shu bo'ldiki, rus xalqi qo'lini pichoq kessa ham tibbiy yordam olishga shoshadi. Kurilda jiddiy operatsiyalar ko'p bo'lmadi. Asosan, oshqozon bilan bog'liq operatsiyalar hamda yirtilgan, kesilgan joylarni tikish bilan ishimiz kifoyalardi. Biznikilar esa tanasini dard to'shakka mixlamaguncha yuraveradi. Xalqimiz ham sog'ligiga ana shunday e'tibor qaratishini istardim.

bir-birimizni ana shu do'stona kechalarda taniganmiz, qadrdonlashganmiz. Bu uchrashuvlar men pishiradigan palovsiz o'tmasdi. Oxota dengizi suvi Tinch okeaniga quyiladi. Okeanga yetish uchun 28 kilometr yayov yursangiz, dengiz havosi bahri dilingizni ochadi, tanangiz yayraydi. Bunday sayrlardan keyin Kurilni, dengizni sevib qolasiz. Okean suviga sho'ng'ib, o'z zimmi uning bir zarrasidek his etganman. Bu juda ajoyib, xotiralarim esa bir umrga tatiydi. Ha, o'zbek yigiti ana shunday samimiyligi bilan, chapani va eng yaxshi do'st bo'lib taassurot qoldirdi. Barchaning mehr-muhabbatiga sazovor bo'ldi. Bir yil ishlab qaytishni reja qilgan jarrohning qaytishiga 7 yil ketdi. Viloyatdan chaqiriqlar boshlangandi. Xolmurod Abdvohidov shartnoma muddati tugamay uyga qaytishga qaror qildi. Qaytayotganda samolyotda “Orangizda shifokor bormi”, deyilgan izlovdan so'ng, Xolmurod Abdvohidov “labbay” deb turdi. 70 yoshli ayolning qon bosimi ko'tarilib, ahvoli yomonlashgan edi.

topshiraman”, “sizni eng yaxshi jarroh deb eshitib keldik”, degan fikrlar, izlovlar, rahmatlardan tushundimki, xalq uchun ishlaganingiz, mehnatlarinigiz besamar ketmas ekan. Yillar o'tib, xalq shifokor uchun ishlashini o'z hayotiy tajribam misolida ko'rdim, amin bo'ldim. Halol va insonlar tashvishi ilar yashaydiganlar atrofiga, jamiyatga bee'tibor yashay olmaydi. Qahramonimiz esa og'riqlardan og'rinib, kamchiliklardan kuyinadi: — Dorixonalar ko'payib ketdi. Ko'paygani yaxshi. Ammo, xafa qiladigani, narx-navo har xil. Belgilab qo'yilgan narx yo'q hisobi.



ENG YAXSHI XIRURG

og'riqlardan og'rinib, kamchiliklardan kuyunadi...

Tibbiyot chegara bilmaydi. Urush paytida ham shifokor yaralangan dushman askariga duch keldimi, kerakli yordamni ko'rsatmay ketishga haqqi yo'q. Ichgan anti, egnidagi oq xalat mas'uliyati va shifokorlik burchi g'animlikni tan olmaydi. Bu burch insoniy qadriyatlar bilan qorishib ketadi-da, bir butunlik kashfetadi.

Shuning uchunmi, respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Surxondaryo filiali 1-xirurgiya bo'limi jarrohi Xolmurod Abdvohidov ishlash uchun vatandan uzoqqa ketish qaroriga kelishga ikkilanmadi. Qayerda bo'lsa ham insonlar hayotini asrab, ontiga sodiq qolsa, shuni o'zi yetarli edi. 23 yillik mehnat stajiga ega tajribali jarroh nega endi boshqa davlatga ish izlab ketishi kerak edi, dersi. Ammo, vaziyat shuni taqozo etsa, sabab qidirishga o'rin qolmas ekan. — 2013-yil... oylik maosh oila xarajatlariga yetmaydigan yillar, — eslaydi shifokor. — Farzandlar esa o'sib kelyapti, ularni o'qitish kerak. Boshqa yoqdan yashab turgan uyimizning krediti kutib turmaydi. Internetdan ish izlab ko'rdim. Rossiya Federatsiyasining Saxalin oblasti, Kuril orollaridagi shifoxonada jarroh uchun

vakant joy bor ekan. Aloqa raqamlarini olib, qo'ng'iroq qildim. Kadrlar bo'limi boshlig'i Aleksey Borodin bilan gaplashdim. Aytilganidek pochta orqali hujjatlarimni jo'natdim. Ko'rib chiqib, maxsus sertifikat olish uchun o'qishimni aytishdi. Bir oy davomida onlayn kurslarda o'qib, sertifikat oldim. So'ng ishga chaqirishdi. 7-mart kuni ishdan bo'shadim. O'rtimda oilam, sevimli jamoam qolayotgandi. Tark etish qiyin, lek imkonsiz edim. O'z oldimga aniq maqsad qo'ygandim. Bir yilcha ishlab, moliyaviy ahvolimni tiklayman-u, yurtimga qaytaman. O'sha yili ko'plab shifokorlar men kabi mutaxassis yetishmaydigan hududlarga — Afrika, Yaman, Arab Amirliklari, Rossiyaga ishlash uchun ketayotgandi. Terapevt do'stimiz Isroil Karimov bilan Rossiyaga jo'nab ketdik.

Xolmurod Abdvohidov O'zbekistonda poliklinika tizimida ishlab ko'rmagan. Ammo, Kuril orollarida mutaxassislar yetishmagani sababli poliklinikada ishlashga, barchani ko'rikdan o'tkazishiga to'g'ri kelardi. Ayniqsa, hujjat ishlariga kelganda eplay olarmikanman degan hadikni yig'ishtirib, ishga mahkam bel bog'ladi.

— Men bilan ishlaydigan Tatyana Aleksandrovna tajribali hamshira edi. Yordam so'rasam, ishlari ko'pligini aytisa-da, baribir vaqt ajratib yordam berardi. Tezda bu tizimni ham o'zlashtirib oldim. Har bir shifokorga kompyuter, printer ajratilgan bo'lib, onlayn sistemada ish olib boriladi. Bemor kelib, ro'yxatdan o'tib, rentgen, qon va boshqa tahlillarini topshirib, ko'rikka kelgunicha, tahlil natijalari bazaga kiritiladi. Bemor ism-sharifini aytishi bilan tahlil natijalarini kompyuter orqali ko'rasiz. Bu juda qulay va ortiqcha qog'ozbozlikka yo'l qo'ymaydi. Bordi-yu bemor shifokordan yoki tahlillardan norozi bo'lib, sog'liqni saqlash vazirligiga murojaat qilsa, o'sha yerning o'zidan bemorning tahlilidan tortib, qanday tashxis va muolaja buyurilganigacha bilib olishi mumkin, — deydi jarroh, bu tizimni o'z zimida ham joriy etish bo'yicha sog'liqni saqlash boshqarmasiga taklif bilan chiqqanini qo'shimcha qilib.

Jamoa ham Xolmurod Boboxonovichni tezda yaxshi ko'rib qoldi. O'zbek yigitini ko'rganda yorug' chehra bilan kutub oladigan bo'ldi.

— Uydan ishga 268 qadam, borib-kelishim qulay edi, — deydi kulib Xolmurod Abdvohidov. — Atrofimda hamkasblar. Milliy taomlarimizni sog'inardim. Tez-tez osh damlab, yuqori va pastki qavatlardagi qo'shnilariga ilinardim. O'zbekning shunday taomini tatib ko'rishlarini istardim-da. Ular ham palovimizni yaxshi ko'rib qolishdi. Pastki qavatda 70 yoshli, ammo haliyam tetik ginekolog Galina Mixaylovna yashardi. Yoshi ulug' bo'lgani uchun ismini aytishga xijolat bo'lardim. O'zbekona takalluf bilan “mama” deb chaqirardim. Bu unga ham yoqardi. Tez orada jamoamizdagilarning hammasi onaxonni “mama” deyidigan bo'ldi. O'zbek xalqi samimi, mehmondo'st, birdamlikni xush ko'rmaydimi, bu qon-qonimga singib ketgan, shekilli, barchani to'plab samimiy suhbatlar, kechalar uyushtirdim. Uyimizdan Oxota dengizigacha 250 metr. Dengiz bo'yida to'planishni xush ko'rardik. Barchamiz

Shifokor zudlik bilan birinchi yordamni ko'rsatib, ayolning hayotini asrab qoldi. O'sha lahzalarda samolyot salonida voqeani kuzatib turganlar chapak chalib yuborishdi...

— Bilasizmi, o'sha lahzalarni hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi, — deydi hayajonlarini yashirmay shifokor. — Bu shifokor uchun yulduzli onlar bo'lsa kerak. Kasbimdan faxrlanaman, shifo ulashishdek ezgu ishni g'urur ila amalga oshirib kelyapman. Ana shunday hislar bilan qaytdim. Oilam, Vatanim meni iliq kutib oldi. Viloyat hokimi, sog'liqni saqlash boshqarmasining mas'ullari bilan suhbatda bo'ldim. Ular sobiq ishxonam — respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Surxondaryo filiali xirurgiya bo'limida ishimni davom ettirishni taklif qilishdi. Rozi bo'ldim.

Mana bir yilga yaqin vaqt bo'ldiki, qahramonimiz o'z ishini mas'uliyat va sharaf bilan davom ettiryapti.

— Kelganimgan so'ng, yaratilgan sharoitlardan quvondim. Ta'minot 95-100 foizga yaxshilangan. Mebellar, jihozlar, asbob-uskunalar yangilangan. Bilimli, salohiyatli yosh kadrlar faoliyat yuritaypti. Bizning qiladigan ishimiz esa yoshlarga oz' tajribamiz bilan ustozlik qilish, bilimlarini o'zgartirish, kerakli tavsiya, maslahatlar berish, — deydi Xolmurod Boboxonov.

Bemor hayotini shifokorga ishonib topshiradigan, jarrohlik stoliga yotadi. Ortidan esa nechtalab qora ko'z umid va ilin ila boqadi. Ayni shu umid va ilin shifokorga kuch beradi, o'ziga ishonchini oshiradi. Aks holda, Xolmurod Abdvohidov o'qishni tamomlab ishga kelganiga bir hafta bo'lmay qo'lga tig' olib, jarrohlik amaliyotini amalga oshirmagan bo'lardi. Bilimlari, o'z ishiga mehri, insonlarga shifo ulashishdek ezgu bir ishni boshlagani hozirga qadar shifokorga qat'iyat berib kelyapti.

— Ustozim tajribali xirurg Quvondiq Madatov deimo “O'n yil xalq uchun ishla, undan keyin xo'len uchun ishlaydi”, derdilar, — deydi X. Abdvohidov. — Nega unday derkanlar deb o'ylardim. Butun umr xalq uchun ishladim. Ularning sog'ligi, hayotlarini asrab qolish uchun jarrohlik xonasiga kirdim. Qanchadan-qancha hayotlarni shu qo'llarim bilan asrab qoldim. Ba'zilar ham shu qo'llarda jon berdi... Vaqt o'tib, tajriba o'z ishini ko'rsatadi. Munosib bahoni esa xalq berarkan. “Qo'li yengil jarroh ekan”, “faqat sizga ishonib o'zimni

Koronavirus profilaktikasi uchun beriladigan dori-darmon vositalarining narxi kishini o'ylantiradi. Bu haqdagi mashmashlar pandemiyada davrida qizigandan-qizigandi. Oddiy va nochor oilaning erkinlashtirilgan narxda sotib olishga imkoniyati yetmasa, nobud bo'lib ketaverishi kerakmi? Hamma narsa iqtisodga borib taqaladigan bir paytda bu masalani ham o'ylanmaslikning iloji yo'q. Kasaldan foydalanib boyshayotganlari, daromad topishlari ham meni og'rintiradi.

Davlat shifoxonasi-yu xususiy klinikalargacha shifokorning aytar gaplari bor. Aytganlari esa kishini o'ygatdirdi: — Davlat shifoxonasida yotib davolanish ham, dori-darmon, hatto spirtgacha bepul. Ammo, negadir xususiy klinikalarga ishonch balandroq. Barchaning xususiy klinikalarga ishi tushgan. U yerda narx-navo osmon.

Ko'rikdan o'tmoqchi bo'lsangiz ham pul, tahlillar, apparatga tushish-u shifokorning har so'zi pul. Dori-darmon vositalarini aytmasa ham bo'laveradi. Davolanish uchun yotsangiz ham, jarrohlik amaliyoti ham pul. Hattoki, operatsiya uchun kerak bo'ladigan barcha narsalar bemor tomonidan olinishi hammasidan oshib tushadi. Yaqinda bir dori-xonada do'stimni chamasida 15 daqiqalar kutib qoldim. Shu vaqt ichida dori-xonachi lof bo'lsa ham 6 million so'mlik savdo qildi. Tanish bir ayolga “falon so'mlik dori-darmonni nima qilasiz”, desam, farzandi operatsiyaga kirishi kerak ekan. To'g'ri, qancha pul ketsa ham, bolasingning sog'ligi uchun olib boradi, yana nima ham qilsin. Ming afsuski, so'nggi paytlarda tibbiyot sohasi biznesga aylanib ulgurdi. Bundan yaxshigina daromad ko'rishyapti.

Aytganlar haq gap. Davlatimiz tomonidan xalqimiz sihat-salamatligi yo'lida aytishga arzilg'ul ishlar amalga oshirilyapti. Tibbiyot akademikalari ochilib, malakali mutaxassislar yetishib chiqishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilyapti. Malaka oshirish uchun mutaxassislarimizning tibbiyot sohasi rivoj topayotgan davlatlarga jo'nalayotgan, xorijga ishga ketgan hamyurtlarimizning Vatanga qaytishlari uchun muzokaralar olib borilyotgan, Vatanga qaytarilgan, ularga yetarlicha oylik maosh, sharoit yaratilyotgan bir paytda haq gaplar barchani og'rintirmasikan?! Holbuki, daromad ko'rish mumkin bo'lgan sohalar ko'p. Nima bo'lganda ham bu soha tibbiyot bo'lmisligi kerak. Aks holda xulosaga o'zingiz kelavering.

Sayyora ALLAYEVA

2009-yilda Jarqo'rg'on tuman Yer tuzish, ro'yxatdan o'tkazish va ko'chmas mulk kadastr xizmati tomonidan Choriyev Kudrat nomiga rasmiylashtirilgan 5225-inventar raqamli kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi MA'LUM QILINADI.

2005-yilda Termiz shahridagi 8-umumiy o'rta ta'lim maktabi tomonidan Buriyev Toir Baxtiyorovichga berilgan U 1474930 raqamli shahodatnomasi yo'qolganligi MA'LUM QILINADI.

13.10.2007-yilda vafot etgan Begnayeov Tashpulatdan qolgan mol-mulkka nisbatan meros ishi ochilganligi sababli merosxo'rlarining meros ulushlarini olishlari uchun Termiz tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xasanov Shavkat Xasanovich notarial idorasiga yetib kelishlari so'raladi.

2022-yilgi chaqiruv mavsumi boshlanganligi munosabati bilan 1995-2004-yillarda tug'ilgan chaqiruvchilarni tuman va shahar mudofaa ishlari bo'limlariga murojaat etishlari so'raladi. VILOYAT MUDOFAA ISHLARI BOSHQARMASI

YANGI BOZOR-YAXSHI

Barcha davrlarda ham yurtning obodligi, to'kinligi bozorlarning obodligi bilan baholangan. Zero, bozorlardagi tartib va ozodalik sotuvchi hamda xaridorlarning kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi hech kimga sir emas.

Xorijiy davlatlardan tashrif buyuruvchi mehmonlar, avvalo, bozorlarimizga e'tibor qaratishadi. Shuni muhimki, tartib-intizom va ozodalik faqatgina oziq-ovqat bozorlariga taalluqli deb o'ylaganlar esa adashadi. Ayniqsa, ozodalik borasida mol bozorlariga qo'yilgan talablar bejiz emas. Jarqo'rg'on tumanidagi mol bozori kichik va eskiligi bois bugungi zamon talabiga javob bermay qolgan edi. Shu bois 2021-yilda bozor ma'muriyati xayrli ishga qo'l urdi. Jarqo'rg'on

tuman “Dehqon oziq-ovqat bozori” MCHJga qarashli “Yangiobod” mahallasida joylashgan mol bozori yangidan qurilib, ishga tushirildi. Bu ishlar uchun ATB “Qishloqqurilishbank” ning Jarqo'rg'on filialidan 600 million so'mlik kredit va o'z hisobidan 300 million so'm mablag' sarflandi. Qurilish ishlari Termiz shahridagi “PLYUS MEGA INTER” xususiy qurilish tashkiloti tomonidan sifatli tarzda amalga oshirildi. O'tgan yilning dekabr oyida ishga tushirilgan yangi mol bozorida bir qancha qulayliklar

yaratilgan. Jumladan, hojatxona, dush, tahoratxona va namozxonona mavjud. 16 o'rinli mehmonxonaning bozorlari uchun yangilik bo'lish bilan birga uzoqdan keluvchilarga ham bir qator qulayliklar yaratdi. Yangi bozor qurilishida yog'in-sochinni, qish-qirovli kunlar ham hisoga olingan. Qo'y bozorida 3 ta ayvoncha, qoramol bozorida bitta bostirma qurildi. Mol bozori to'liq ichimlik suvi hamda yoritgich chiroqlari bilan ta'minlandi. Yana bir yangilik, bu safar yangi mol bozoridan parrandalar uchun ham maxsus joy ajratildi. Ilgari Jarqo'rg'on tumanida parranda bozori mavjud bo'lmaganligi sababli noqulayliklar mavjud edi. Bu yerda beshta oshxonaga hamda eshik-rom

savdosi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyat ko'rsatmoqda. — Yangi bozorda yaratilgan shart-sharoitni ko'rib, rosa xursand bo'ldik. Eskisi bilan solishtirib bo'lmaydi. Restini aytganda, bu yerda qo'y-echki va qoramollar uchun alohida keng maydon ajratilganligi kishini quvontiradi. Bu sotuvchi uchun ham, xaridor uchun ham qulaylik yaratadi, — deydi bozorga qo'y sotish uchun chiqqan Abdurasul To'rayev. Yangi bozor ishga tushishi natijasida 12 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Xolmuhammad TOG'AYMURDOV

UCH SAHOBA

Umrini dinimiz va Rasulimiz sollallohu alayhi vasallam xizmatlariga atagan ulug' sahobalarning sa'y-harakatlari natijasida muqaddas islom dinimizning asl manbalari hozirgi kunga qadar asl holda saqlanib keldi. Sahobalar payg'ambarlik maqomidan kelgan har bir ma'lumotni alohida jiddiylik va e'tibor bilan tinglaganlar, so'zlarini xotiralari muhrlaganlar. Shu darajaga yetdiki, ular Rasululloh sollallohu alayhi vasallam so'zlarini eng to'g'ri yo'l bilan aniqlash uchun umrlarini shu ishga bag'ishladilar.

Ushbu o'rinda Qur'oni Karimning nega Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam hayotlik paytlarida jamlanmagani ham qisqacha to'xtalib o'tsak. Qur'oni Karimni jamlash, Alloh taolo bu sharafni hammadan oldin Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga bergan.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam hofizlarning sayyidi, qalblarida Qur'on jamlanganlarning avvali edilar. Ushbu sharafiga Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning davrlaridagi tanlangan sahobalardan ham bir nechalari muayassar bo'lganlar.

Ma'lumki, Muhammad sollallohu alayhi vasallam Qur'on oyatlarini Jabroil alayhissalomdan eshitib, yodlab olar edilar. So'ngra sahobai kiromlarga o'zlariga qanday nozil bo'lgan bo'lsa, o'shanday qilib yoddan o'qib berar, ular esa ushbu oyati karimalarni darhol yodlab olar edilar.

O'sha paytda Qur'oni Karimni naql qilish asosan yodlash orqali bo'lar edi. Qur'oni Karimni qabul qilib olish va uni muhofaza etishdagi eng asosiy omil uni yodlash edi.

Buning o'ziga xos sabablari va hikmatlari bor edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning davrlarida sahobalardan ko'plari Qur'oni Karimni to'liq yod oldilar. Bu haqda hadislarida ba'zi ma'lumotlar ham kelgan.

Qatoda roziyallohu anhdan rivoyat qilinadi: “Anas ibn Molikdan: “Nabiy sollallohu alayhi vasallamning davrlarida Qur'onni kim jam qilgan? deb so'radim. “To'rt kishi, hammalari ansorlardin: Ubay ibn Ka'b, Mu'oz ibn Jabal, Zayd ibn Sobit va Abu Zayd”, dedi”. (Imom Buxoriy, Muslim va Termiziy rivoyat qilishgan).

Shuningdek, hadis rivoyatida ham

mazkur hofizi Qur'on sahobalar kabi ko'plab ba'zi sahobalar yetakchilik qildilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan mingdan ortiq hadis rivoyat qilgan sahobalarga “al-Muksirun”, ya'ni ko'p hadis rivoyat qilganlar deyiladi. Jumladan, mazkur eng ko'p hadis rivoyat qilgan sahobalar Abu Hurayra, Abdulloh ibn Umar, Anas ibn Molik, Oisha onamiz, Abdulloh ibn Abbas, Jobir ibn Abdulloh, Abu Said al-Xudriy raziyallohum anhumlardir.

Ba'zi sahobalar Rasulullohni tark etmay, uzoq vaqt birga bo'lishsa-da, oz sonli hadis rivoyat qilganlar. Bunga ularning davlat ishlari, jang-u jadallar bilan mashg'ulligi yoki erta vafot etganlari sabab bo'lgan. Masalan, Payg'ambarimizning sodiq do'stlari Abu Bakr roziyallohu anhu ko'proq xalifalik ishlari bilan mashg'ul bo'lganlari hamda boshqa sahobalarga qaraganda biroz erta vafot etganlari uchun u kishidan bizgacha yetib kelgan rivoyatlar soni kamroq.

Abu Hurayra roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan 5374 ta hadis rivoyat qilganlar. Muksirunlar orasida birinchi o'rinda turgan ushbu sahobadan 800 ga yaqin roviy hadis rivoyat qilgan.

Ulug' sahoba qo'ylarni o'tlab yurganida topgan mushukchalarini etaklariga qo'yib, ular bilan o'ynaganlari uchun “Abu Hurayra” laqabini olganlar. Nabiy sollallohu alayhi vasallam Abu Hir, deb ham chaqirardilar. Vaqt o'tishi bilan ushbu laqab u kishining ismlaridan ham oldinga o'tdi. Milodiy 628-yilda Tufayl ibn Amr

Davsiy vositasida musulmon bo'lgan sahoba Madinaga borgan kunlaridan boshlab o'zlarini butunlay islomga bag'ishladilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan doimo birga bo'lib, hech bir zamon dunyo xoy-u havaslariga moyil bo'lmadilar. Hatto janglardan keyin Rasululloh sollallohu alayhi vasallam u kishidan o'ljudan ulush xohlaysanmi, deb so'rganlarida, Alloh u zotga ato etgan ilmdan biror narsani o'rgatishlarini so'radilar.

Islomni kech qabul qilganlari uchun yo'qotgan vaqtni o'ldirish maqsadida ochlikdan hushlaridan ketsalarda, Masjid Nabaviyadagi suffani tark etmas edilar. Abu Hurayra roziyallohu anhdan hadis ilmiga bergan ahamiyati va qiziqishlarini quyidagicha izohladilar: “Muhojirlar bozorda tijorat bilan, ansorlar bog'larida ziroat bilan mashg'ul bo'lib turganlarida men qornimni to'ydiradigan narsaga qanoatlanib Rasulullohning huzurlarida boshqalar hozir bo'lganlarida men hozir edim, ular yod olmagani bilan men yod olar edim” (Imom Buxoriy rivoyati).

Yana bir ulug' sahoba Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan 2630 ta hadis rivoyat qilganlar. Hazrati Umar roziyallohu anhdan o'g'illari Abdulloh eng ko'p hadis rivoyat qilgan va eng ko'p fatvo bergan sahobalardan edilar. U kishi otalari Umar ibn Xattob roziyallohu anhu bilan islomni

qabul qilganlar.

Payg'ambarimiz vafotlaridan keyin u zotga bo'lgan mehr-muhabbatlaridan namoz o'qiydigan joylarini o'rganib, u yerda namoz o'qiganlar, yurgan yo'llarida yurganlar, soyalangan daraxtlarining tagida o'tirib, qurib qolmasligi uchun sug'orib turganlar. Payg'ambarimizning qayinog'asi bo'lishlari Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhdan u zot bilan yanada yaqin bo'lish sharafiga berdi. Shu boisdan ham ushbu sahoba Payg'ambarimizning boshqa ko'plab sahobalarning ko'rib, eshita olmaydigan xatti-harakatlari va so'zlari musulmonlarga yetkazilishiga katta xizmat qildilar.

Ibn Umar roziyallohu anhdan eng muhim xususiyatlaridan biri Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan eshitgan har bir so'zlarini aytib berishga nihoyatda ehtiyotkor bo'lganlar va ularni o'xshash so'zlar bilan almash-tirishga hech qachon yo'l qo'y-maganlar. Abdulloh ibn Abbas, Jobir ibn Abdulloh kabi sahobalar Anas ibn Siyri, Hasani Basriy, Said ibn Musayyab, Nofe', Mujohid, Tovus kabi tobeinlar Ibn Umar roziyallohu anhdan eng mashhur talabalaridir.

Yana bir mashhur sahoba Anas ibn Molik roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan 2286 ta hadis rivoyat qilganlar.

Anas ibn Molik Payg'ambarimizning Makkadan Madinaga hijrat qilishlaridan o'n yil oldin dunyoga kelganlar. Ushbu sahoba ansoriylardan bo'lib, Hazraj qabilasidan edilar. Payg'ambarimizga o'n yil xizmat qilgan va eng ko'p hadis rivoyat qilganlardan bo'lmish Anas ibn Molik “Xodimun Nabiy” (Payg'ambar xizmatkori) nomi bilan ham mashhur bo'lganlar.

Anas ibn Molik o'n yoshga to'lganlarida Rasululloh Madinaga hijrat qildilar. Anas ibn Molik ham Payg'ambar alayhissalomni katta hayajon bilan kutib olgan musulmonlardan

edilar.

Madinada musulmonlar o'rtasida Rasululloh xizmat qilish va u zotga sov'g'a-salomlar berishda o'ziga xos go'zal bir raqobat bor edi. Anas ibn Molikning onalari Ummu Sulaym kambag'al bo'lib, Sarvari koinotga hadya bera olmaganidan g'amgin edilar. Bir kuni o'g'lining qo'lidan ushlab Rasulullohning huzurlariga keldilar. Onalari: “Yo Rasululloh, men bir kambag'alman. Sizga yordam bergim keladi, lekin hech narsam yo'q. Bu mening o'g'lim. Yordam va xizmat qilishi uchun uni Sizga qoldiram. Uni qabul qiling”, dedilar.

Ummu Sulaymning iltimosini Rasulimiz rad etmadilar. Shu kundan boshlab Anas ibn Molik Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga vafotlarigacha o'n yil xizmat qildilar. U zot Payg'ambarimizga xizmat qilgan vaqtlarini shunday tasvirlaganlar: “Meni biror qilmagan ishim uchun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Nega buni qilmading?” yoki qilgan ishim uchun: “Nega bunday qilding?” demas edilar (Imom Muslim rivoyati).

Anas ibn Molik Payg'ambarimizni juda ham yaxshi ko'rar, U zotga yanada go'zal xizmat qilish uchun juda ko'p harakat qildilar. Hammadan oldin uyg'oni, Rasulullohning xizmatlarida bo'lish uchun masjidga borganlar. Qachonki ro'za tutishni niyat qilgan bo'lsalar, saharlik tayyorlab, U zot bilan birga bomdod namozini o'qiganlar. Payg'ambar alayhissalomning xizmatiga kirganlaridan keyin har kuni bomdod namozini birga o'qidilar. Anas ibn Molik Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlarida qolar, xizmat qilib bo'lgach kechqurun Qubodagi uylariga qaytardilar.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning uzoq vaqt xizmatlarida bo'lishlari, o'ta aqlli va kuchli xotiraga egaliklari u zotning eng ko'p hadis rivoyat qilgan sahobalar qatoriga kirishiga, Payg'ambarimiz sunnatlarini yetkazish orqali musulmonlarga katta xizmat qilish imkonini yaratdi. Hadislari asosan Rasulullohning hollari va harakatlari haqidadir.

Muzaffarxon JONIYEV, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Hadisshunoslik bo'limi boshlig'i



INSON BO'LIB YASHASH SIRI

KITOBXONLIK

Kitob do'konlarining birida Abduqayum Yo'ldoshevning “Puankare” hikoyalar to'plamiga ko'zim tushdi. O'zgacha dizaynga ega kitob ichidagi ajib hikoyalar meni o'ziga rom etdi.

Uni sotib olgach, o'qishga tushdim. Umuman, hayotning turfa ko'rinishlarini o'zida mujassam etgan hikoyalar go'yoki inson hayotda o'z erkini boy bermasligi

kerakligi, inson bo'lib keldimi, demak, inson bo'lib yashash lozimligini uqtiradi. To'plamdagi “Puankare” nomli hikoyada bu tushunchalar yanayam yaqqolroq, to'laroq ifoda etiladi.

ПУАНКАРЕ

va undan farqli fikrlaydigan do'sti haqida so'z boradi. Bir qarashda iste'dodli matematika-tikning ko'rgan kechirganlari, olamshumul kashfiyotlar, inson orzu-umidlarini o'zida jo qilganday ko'rinish uchun qo'yilgan teorema, unda har birimiz o'sha teoreмага yechim izlayotgan “matematik” ekanligimizni uqtirayotganday bo'ladi. Lekin

bu jarayonda kimning yo'li to'g'rirog'ini? Birgina urg'ochi bo'ringa a'zosiga e'tiqod qilib, topgan baxtni “Kampirman tizzani tizzaga tekkizib gurunglashib o'tirish” da ko'rayotgan Tirkashning yo'limi? Yoki hayotini ma'ni izlashga bag'ishlab, bu yo'lda xor-u zor, telba bo'lgan qahramon taqdiri? Balki, turli ehtiyojlardan xoli, Peterburgning bir chetida onasi bilan yashaydigan, na pulga qiziqadigan va na odamlar bilan muloqot qiladigan, kun bo'yi derazadan termulib, murakkab gipotezalar yechimi bilan shug'ullanuvchi Perelman tutgan yo'l to'g'ridir? Inson irodasi bu savollarga javob topish uchun ojiz.

Kitob nihoyasida shunday so'zlar yozilgan: “Bani bashar dunyoga kelib, tiriklikning sirli-sehrli, ilohiy tamaddun jarayoni boshlanibdiki, Hayot atalmish ulug' muallim

Koinot sarvari bo'lmish har bir Odam oldiga biri-biridan murakkab ayni paytda, kulgili darajada o'ta jo'n sinoatlar gipotezasini qalastirib tashlaydi: istaganingni tanlab ol-u, qisqagina davom etadigan umring davomida, o'z hayoting, kelajak kunlaring mohiyat-mazmuni bilan uni isbotla. Inson bo'lib yasha, Inson bo'lib qol...”

Ha, olim bo'lish oson, lekin odam bo'lish qiyin degan jumlada naqadar katta ma'no borligini shu hikoyalarni o'qib yanada amin bo'lasiz. Insonchilikning yo'li qanday ekanligini, biz yurayotgan qaysi yo'l to'g'rirog'ini anglaysiz. Shunday ekan, to'plamni kitob javoningidagi xazinalar yoniga qo'shib qo'yishni unutmang, uni mutolaa qilganingizda mening bergan maslahatim bekor emasligini tushunasiz.

Feruza RAHMONQULOVA

“Momabog'cha”

“Momabog'cha” bor ekan, Och yurmaydi bolalar. Uyozoda, ko'ngil tinch, Yo'qlanar dugonalar.

“Momabog'cha” bor ekan, Kelin qoshin bo'yaydi. O'g'il internet titib, Pubg, Xbet o'ynaydi.

Moma beshik belaydi, Alla aytar bardavom. Oyog'ida tebratib, Ulg'aytirar pahlavon.

“Momabog'cha” bor bo'lsin, keksalikda andarmon. faqat qadrini biling, yo'qsa g'animat... armon!!!



Suvonqul AHMEDOV

SURXON TONGI va ЗАРЯ СУРХАНА gazetalar tahririyati

MUASSISLAR: Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi va viloyat hokimligi

TAHRIR HAY'ATI: Jo'rabek TO'RAYEV (hay atraisi) Abduraim CHORIYEV, Muhiddin ABDURAHMONOV, Dinara EGAMBERDIYEVA, Xurshid KARSHIYEV

Gazeta 2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

BOSH MUHARRIR: Salohiddin NORQOBILOV MAS'UL MUHARRIR: X. KARSHIYEV NAVBATCHI MUHARRIR: X. TOG'AYMURODOV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin. Reklama va marketing bo'limi: 76 224-23-85 TELEFONLAR: 76 224-22-92, 76 224-22-80

Qog'oz bichimi A-2. Nashr indeksi: 6500 Bosishga topshirildi—09:00 Bosildi—11:00 Adadi 16947 nusxa. Buyurtma Γ-

MANZILIMIZ: Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy BOSMAXONA MANZILI: Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy

Gazeta “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalar tahririyati bosmaxonasida chop etildi.